



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025-yil “16”-may

186-son

Toshkent shahri

Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning “Ijtimoiy faollik indeksi”ni joriy etish to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 22-yanvar kuni oliy ta’lim va ilm-fan sohasida 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan taqdimotda berilgan 5-sonli topshiriqlarning 13-bandini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-martdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 149-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining ijtimoiy faolligi, vatanparvarligi, fidoiyligi va tashabbuskorligini oshirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy-huquqiy yo’nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko’tarish, ta’lim grantiga talabgorlarning ijtimoiy faollik ko’rsatkichini aniqlash maqsadida talabaning o’qish jarayonidagi ijtimoiy faolligini har o’quv yili oxirida maksimal 100 ballik tizimda baholash mexanizmi joriy etilsin.

2. Oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining “Ijtimoiy faollik indeksi”ni baholash metodikasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi** (X. Sultanov), **Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi** (N. Kasimov), **Talaba va o’quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi** (A. Akramov), **Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi** (J. Xalilov), **Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo’limi** (K. Artikov) 2025-yil 1-sentyabrga qadar talabalarining ijtimoiy, ma’naviy, ma’rifiy yo’nalishlardagi faoliyatini baholab borishga qaratilgan maxsus elektron platformani ishlab chiqish va joriy etish choralarini ko’rsin.

4. **Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi** (N. Kasimov) **Talaba va o’quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi** (A. Akramov) bilan birgalikda:

ijtimoiy, ma’naviy, ma’rifiy yo’nalishlardagi faoliyatini baholab borishga qaratilgan maxsus elektron platformani yuritishga mas’ul etib belgilansin;

bir oy muddatda oliy ta'lim tashkilotlari hamda ularning filiallari yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (direktorning birinchi o'rinbosar)lari uchun joriy etilayotgan talabalarning "Ijtimoiy faollik indeksi"ni to'liq mazmun-mohiyati bo'yicha qisqa muddatli o'quv-seminarlarini tashkil etsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S. Buzrukxonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin